



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



6/2024

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

6/2024



E-ISSN 2181-1466
9 772181 146004



ISSN 2181-6875
9 772181 687004

@buxdu_uz

@buxdu1

@buxdu1

www.buxdu.uz

MUNDARIJA * СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS**

TILSHUNOSLIK * LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

Yuldasheva D.N., Axtamova N.B.	O‘zbek tili qavm-qarindoshlik leksikasining diskursiv tahlili	3
Bobokalonov O.O., Jumayev A.A.	Linguistic features of phytomorphic and zoomorphic images in french and german fairy tales	10
Navruzova M.G.	O‘zbek xalq ertaklarida tibbiy birliklar	16
Jonridova S.Sh.	Tilshunoslikda implikasiya masalasining o‘rganilishi	20
Abdulxayrov D.P.	Ekskursiya nutqida kommunikativ ko‘nikmaning roli	26
Azimova S.Kh.	Intercultural pragmatic features of speech acts of expressing “surprises” in American culture	31
Fattoyeva Z.R., Botirova F.B., Quziyeva T.F.	Qishloq xo‘jaligiga oid terminlarning tuzulishiga ko‘ra turlari	35
Jalilov B.H.	Ingliz internet leksikonida paydo bo‘lgan neologizmlarning lisoniy tahl	39
Kdirbaeva U.K.	Sintaktik takroming lingvopoetik ahamiyati	44
Mansurova N.A.	Marketing va menejment terminlarining ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘zlashmalari	48
Nuriddinova Sh.K.	Tibbiy eponimlarning morfologik-struktur tabiati	53
Ruziev Y.B., Qosimova Z.S.	The definition of punctuation and the role of punctuation marks in german	58
Qurbonova D.O.	Pragmatic features of advertisementy in the english language	63
Radjabquliyeva M.A.	Reklamalarning jahon va o‘zbek tilshunosligida tadqiqi masalasi	67
Tilavova M.A.	Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida qo‘llanilgan zid ma’noli ayrim birliklar	71
Sattorova Sh.Sh.	Modallik kategoriyasining tadqiq darajasi va talqini	75
Shamsiddinov T.G’.	Political discourse as an object of linguistic research on the examples of speeches of different presidents	79
Shamsiyeva S.R.	Tilning badiiy tasvir vositalari bo‘lmish metafora va metanimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	84
Karimov R.A., To‘xtayev N.N.	Ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning etimologik tahlili	88
Yusupova D.Y., Furqatova M.F.	Elbek – jadidlar davrida yaratilgan birinchi lug‘atlar muallifi	93
Markova Y.S., Zokirova N.S.	The nature, causes and solutions of lexical problems in translation	98
Muxtorova D.F.	National-specific and culture relevant phraseological units in english and their cultural connotation	103
Samandarov R.D.	Abzaslararo bog‘lanishda applikatorlarning o‘rni	108
Ubaydova H.A.	Maqollardagi ichki antonimiyaning tuzilish jihatdan tadqiqi	113
Korshunova A.V.	Russian phraseological expressions with a phytonym component	118
Saidova N.A.	Frazeologik birliklarning milliy-ma‘daniy xususiyatlari va ularning nazmiy va nasriy asarlarda qo‘llanishi	123
Ataboyev N.B., Abdullayeva N.A.	Translation analysis of islamic terms both in english and uzbek religious texts --prophets names translation	128
Jo‘rayeva M.M., Xayrullayeva U.A.	Gazeta sarlavhalarining pragmatik til vositalari (fransuz va o‘zbek gazetalari misolida)	132
Axmatova I.H.	Olot tumani etnotoponimlarining semantik tahlili	136
Gasimova I.A.	French linguists’ syntactic views	142
Yuldasheva D.N., Asadova Sh.A.	Nutqiy muloqotda lingvoma‘naviy birliklar	146

Расулова С.Г.	Макрополе «космоним» в топонимах русского и азербайджанского языков	152
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Rizayev N.S.	O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining jadidchilik harakati g'oyalari bilan hamohangligi (ijtimoiy – falsafiy tahlil)	155
Adizov B.T.	Ommaviy axborot vositalarida siyosiy partiyalar faoliyatining xorij tadqiqotlaridagi tavsifi	159
Ahmadxojaev M.Z.	Legal basis of organizing the activity of a political leader	164
Asadova R.B.	O'zbekiston va Hindiston davlatlarining fan va ta'lim sohasidagi hamkorligi	168
Turg'unboeva D.A.	Migratsiyaning o'rganish borasidagi ilmiy amaliy tadqiqotlar	173
Ro'ziyeva G.S.	Madaniyat milliy o'ziga xoslik va milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida	179
Turgunbayeva D.A.	Study of the migration problem by uzbek scientists	183
Yusubov J.Q., Xusanova D.A.	Davlat fuqarolik xizmatchilarini shakllanishida ma'naviy-siyosiy dunyoqarashning o'rni	187
Musayev M.T.	Missionerlik va prozelitizm tahdidini bartaraf etish va uning strategik vazifalari	193
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Hayitov Sh.A., Rahmatov M.M.	BXSR va Germaniyada moliyaviy holat va narx-navo: qiyosiy tahlil (1920-1924-yillar)	197
Qudratov Sh.Y.	Buxoro jadidlarining tadbirkorlikka oid yondashuvlari	201
Radjabova N.M.	BXSRda musiqa ta'limi va qo'shiqchilik san'ati	205
Xamrayev I.M.	Buxoro shahri hayoti va suv xo'jaligi tizimida Labi hovuz ansamblining tutgan o'rni	209
Гадоев Д.Х.	“Халифа Худойдод” жомеъ масжиди тарихи	213
Зарипов С.Дж.	Переселенческая политика Узбекистана под влиянием советов, трудовые ресурсы промышленности и сельского хозяйства	218
Niyozova M.I., Djumayeva S.S.	Buxoro muzeyi qo'riqxonasi eksponatlari to'plamidagi o'rin olgan ossuariylar	222
IQTISOD *** ECONOMY *** ЭКОНОМИКА		
Salimov A.F., Qahhorov X.X., Umrzoqov J.B.	Korxonalar boshqaruv faoliyatini baholashning xorij mamlakatlar tajribasi	226
Salimov A.F., Xolmatova M.S.	Iqtisodiyotning real sektorini isloh qilish va takomillashtirish istiqbollari	231
Salimov A.F., Shokirova D.O.	Korxonalarining asosiy faoliyatini baholash tizimini boshqarishni takomillashtirish	235
PEDAGOGIKA *** PEDAGOGY *** ПЕДАГОГИКА		
Ubaydullaev S., Begmuradov Sh.D.	Possibilities to increase educational efficiency of students in physics through organizing virtual laboratories	240
SAN'AT*** ART *** ИСКУССТВО		
Bayramov M.A.	Memar ajami's creative works as a historical and cultural heritage	246
Huseynova R.H.	The historical development path of polyphonic series and its implementation in the creativity of azerbaijan composers	252

ELBEK – JADIDLAR DAVRIDA YARATILGAN BIRINCHI LUG‘ATLAR MUALLIFI

Yusupova Dildora Yunus qizi,

*Buxoro davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.(PhD)
dilyusupova3330@gmail.com*

Furqatova Mehribon Farhodovna,

*Buxoro davlat universiteti Lingvistika (o‘zbek tili) ta’lim
yo‘nalishi II bosqich magistranti*

Annotatsiya. Jadidlarning faoliyat doirasi keng qamrovli bo‘lib, ular ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma’rifiy sohalar bilan birga ilm-fan, adabiyot, san’at, til, alifbo yo‘nalishlarida ham faol faoliyat yuritishdi. Ayniqsa, til masalasi ular faoliyatida muhim o‘rin tutdi.

Kalit so‘zlar: jadidlar harakati, jadid adabiyoti, milliy til, til me’yorlari.

ЭЛБЕК – АВТОР ПЕРВЫХ СЛОВАРОВ, СОЗДАННЫХ В СОВРЕМЕННУЮ ЭРУ

Абстрактный. Сфера деятельности джадидов была обширной, они действовали в социальной, экономической, культурной и образовательной сферах, а также в науке, литературе, искусстве, языке и алфавите. Особенно важным в их работе был вопрос языка.

Ключевые слова: джадидское движение, джадидская литература, национальный язык, языковые нормы.

ELBEK - THE AUTHOR OF THE FIRST DICTIONARIES CREATED IN THE MODERN ERA

Annotation. The scope of activity of the jadids was wide-ranging, and they were active in the fields of science, literature, art, language, alphabet, along with social, economic, cultural and educational spheres. The language issue in particular played an important role in their activities.

Keywords: Jadid movement, jadid literature, national language, language norms.

XX asr boshlarida Turkistonda tarix g‘ildiragini harakatlantirish jadidlar chekiga tushdi, desak mubolag‘a bo‘lmas. Taraqqiyparvar ziyolilar – jadidlar Vatan istiqloli-yu istiqboli, mamlakatning iqtisodiy va madaniy rivoji bevosita maorifga bog‘liq ekanligini ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarining ilk davridayoq teran anglab yetgan edilar. Shu sabab ular tomonidan “usuli jadid” – “usuli savtiya” (tovush usuli)” tipidagi yangi maktablar ochishga zo‘r berildi va ayni paytda, o‘z g‘oya hamda qarashlarini keng xalq ommasiga targ‘ib-u tashviq qilish maqsadida gazeta, jurnal, badiiy-ilmiiy to‘plamlar nashr etish ishlari ham boshlab yuborildi. Biroq ma’naviyat va maorifning asosiy tayanch ustuni hisoblangan adabiy til hamda imlo Fitrat iborasi bilan aytganda “tartibsiz, buzuq ham qiyin edi” va bu jadidlarning o‘z oldilariga qo‘ygan xayrli maqsad-vazifalarni tugal amalga oshirishga to‘sqinlik qilardi. Haqiqatan ham, imlo, alifboda bir qator kamchiliklar – imlo masalasida aniq bir to‘xtamga kelinmaganligi, uning tamoyillari ishlab chiqilmaganligi, arab yozuvi bilan bog‘liq qiyinchilik va murakkabliklar bartaraf etilmaganligi– mavjud edi. Bundan tashqari, adabiy til xalq jonli so‘zlashuv tilidan ancha uzoqlashib qolgan, uning qonun-qoidalari ma’lum bir holga keltirilmagan edi.

Tabiiyki, til va imlodan mavjud bo‘lgan bu kabi kamchilikni nuqsonlarni bartaraf etmasdan turib, xalqni to‘la ma’noda ma’rifatli qilish, uning ma’rifiy darajasini yuksaltirish, millatning asosiy belgilaridan biri hisoblangan til birligiga erishish va eng muhimi, o‘zbek xalqini yagona millat sifatida shakllantirish mumkin emasdi. Millat maorifi, madaniyati rivoji yo‘lida faoliyat olib borgan jadidchilik harakatining har bir namoyandasi shu bois ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy masalalar bilan bir qatorda til va imloga oid masalalarga ham jiddiy e’tibor berib, til siyosatida faol ishtirok etishdi. Ular o‘zbek milliy adabiy tili, yozuvi, imlosi, alifbosini yaratishdek murakkab, qiyin va ayni paytda xayrli ishni o‘z zimmalariga oldilar. Bu borada ular tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- o‘zbek adabiy tilining muhim nazariy masalalari hal etildi;
- o‘zbek adabiy tilining taraqqiyot yo‘li belgilab berildi;

- imlo qoidalari ishlab chiqildi;
- yozuv takomillashtirildi;
- o‘zbek tilshunosligi fani yuzaga keltirildi va rivojlantirildi;
- o‘zbek tilining ijtimoiy-siyosiy mavqei ko‘tarildi;
- o‘zbek tilining leksik tarkibi yangilandi va boyitildi;
- o‘zbek milliy adabiy tili shakllantirildi.

Jadidlarning amalga oshirgan ishlari miqdori shu qadar ko‘pki, ularni sanab sanoo‘iga yetish anchayin qiyin ish, faoliyat ko‘lami shu darajada kengki, uni ummonga mengzash mumkin.

Umuman olganda, xalqning kamoloti va maorifi taraqqiyotini til bilan bog‘lagan jadidlar til masalasiga alohida e‘tibor bilan qaradilar. Ular nazdida, til millat uchun hayot-mamot masalasi edi. Shunga ko‘ra bu davrda til masalasi siyosat darajasigacha ko‘tarildi. Jadidlar til siyosati jarayonida faol ishtirok etdilar. Ular o‘zbek tilining ijtimoiy-siyosiy huquqini tiklash uchun harakat qilishdi, uning boyligini katta kuch va g‘ayrat bilan himoya qilishdi. Milliy tilimizning shakllanish jarayonlari tarixini atroflicha o‘rganish, tadqiq etish o‘z milliy mafkurasini yaratayotgan millatimiz uchun ham, fanimiz uchun katta ahamiyatga ega.

Yot tillar ta‘siri ostida o‘zining boyligini yo‘qotib, zaiflashib borayotgan tilimizni ishlashga kirishgan Chig‘atoy gurungi a‘zolari dastlab usmonli turk va tatar ma‘rifatparvarlari ta‘siri ostida unutilgan turkiy so‘zlarni tiklashga harakat qildilar. Natijada 20-yillar matbuotda *o‘ksiz, chechak, ochun, sayg‘uli, ekmak, bitim, asig‘, eksik, emgak, bo‘g‘ov, yozoq, bosuq* kabi ko‘plab arxaik so‘zlar qo‘llanila boshlandi. Puristik harakat deya ko‘pchilik tomonidan tanqid qilingan gurung a‘zolarining bu faoliyati o‘zbek tili so‘z xazinasini boyitish, tilni ichki imkoniyatlari asosida rivojlantirish, milliy adabiy tip yaratish yo‘lidagi birinchi ijobiy urinishlar edi. Chig‘atoy gurungi XX asrning 20- yillarida mafkuraviy tazyiq ostida rasman yopib qo‘yilgan bo‘lsada, tilni soddalashtirish, xalq anglashi qiyin bo‘lgan fors, arab, rus so‘zlarining sof turkiy muqobillarini izlab topib muomalaga kiritish, yangi so‘zlar ijod qilish va shu asosda tilni rivojlantirish uchun izchil kurash olib bordilar. Til sofligini saqlash uchun boshlangan bu harakatlarining tashabbuskori Fitrat bo‘lsa, Elbek uning yonida zo‘r g‘ayrat bilan faoliyat ko‘rsatdi. Elbekning qaysi bir asarini olib qaramaylik, til masalasiga juda jiddiy e‘tibor berilganligini ko‘ramiz. Chunki "bir ulusning dunyoda borliqqa chiqara turg‘on narsasi, shubhasiz uning milliy narsalari va tili bo‘lgusudir" degan Elbek tilning fan va madaniyat taraqqiyotida naqadar ahamiyatli ekanligini ba‘zi bir zamondoshlaridan ko‘ra ko‘proq anglab yetgan, shu sabab o‘z faoliyatining asosiy qismini o‘zbek tilining lug‘at boyligini o‘rganishga bag‘ishladi.

O‘lkamizda matbuotning rivojlanishi o‘zbek tilining shakllanishi, ishlanishi va rivojiga katta ta‘sir qildi. Yangi ilmu fan va texnikaning kirib kelishi ziyolilar gardaniga ularni o‘zlashtirish, xalqqa yetkazish kabi mas‘uliyatli vazifalarini yukladi. Tilshunoslar oldida yangi o‘quv darsliklarini tuzish uchun ilmiy, faniy, siyosiy terminlar yaratish, ularni abadiy tilga o‘zlashtirish kabi muhim vazifalar turar edi. Ana shu mas‘uliyatlarni his etgan Elbek o‘zining bor imkoniyati, iqtidori, salohiyatini ishga solib, lug‘at to‘plashga kirishdi.

1920-yillarda Tataristonda bu borada ancha ishlar qilingandi. Masalan, maorif komissarligi qoshida «Terminologiya komissiyasi» tuzilgan bo‘lib, uning a‘zolari terminlarning ishlanishiga yetakchilik qilishar, ular tomonidan taklif etilayotgan atamalar matbuotda mubohasa uchun e‘lon qilinar (misol uchun "Maorif" jurnalining 1921- yil 5-6-va 7-8 sonlarida arifmetika, geometriya, algebra bo‘yicha 600dan ortiq termin e‘lon qilingan), ko‘pchilikka ma‘qul bo‘lgan atamalar qat‘iy ravishda belgilab olinardi. Elbek ana shu tajribadan foydalandi. U Chig‘atoy gurungi a‘zolarining yot so‘zlarni yoppasiga turkiylashtirish harakatlari natijasida yuzaga kelgan nuqsonlar va chalkashliklarga barham berish, ularni mubohasalar yordamida ilmiy hal qilish maqsadida 20-yillar davomida muomalaga kiritila boshlagan sof turkiy so‘zlarni hamda o‘z izlanishlari davomida to‘plagan lug‘at va atamalarni jamlab fikr olishuv uchun matbuotda quyidagi tartibda e‘lon qila boshladi:

<i>Turkiy</i>	<i>O‘zga</i>
<i>tegra-to`garak</i>	<i>doira</i>
<i>avay</i>	<i>ehtiyot</i>
<i>yut</i>	<i>qahat</i>
<i>boshqarma</i>	<i>idora</i>
<i>bosqoq</i>	<i>noyib</i>

Shu asosda 550ta turkiy so‘z o‘zining yot muqobillari bilan gazetaning 10ta sonida (1923-yil 5-sentabrdan 21-noyabrgacha) "Lug‘at va atamalar" bobi nomida berilib borilgan. Elbekning bu lug‘at va atamalarni matbuotda e‘lon qilishdan asosiy maqsadi quyidagilardan iborat edi: arab, fors va rus tillaridan kirib kelgan o‘zlashma so‘z va terminlarga o‘zbekcha muqobil topish, ularning qo‘llanilishini ta‘minlash, matbuot ahlini ana shunday hodisa va tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar ma‘nosi bilan yaqindan tanishtirish;

20-yillarda keng iste'molda bo'lgan *mamnu'*, *ixtilol*, *muhtoriyat* kabi arabcha so'zlarning oddiy xalq uchun tushunarli bo'lgan *qatag'on*, *qo'zg'alon*, *erkinlik* kabi muqobillari bor. Bu so'zlar arabcha muqobillarining ma'nolarini o'zlarida to'la ifoda eta olarkan, ularni keng iste'mol doirasiga kiritish, yot so'zlarni esa muomaladan chiqarish zarurligini uqtiradi. *Yo'lboshlovchi* ma'nosini *ashlatu* va arabcha *dalil* o'rnida ilgari turkiy xalqlar *hulagur* so'zini ishlatganlar. Elbek til sofligini saqlash uchun unutilgan mana shunday turkiy so'zlarning qayta iste'molga kiritishni lozim topadi.

2. Matbuot sahifalarida ba'zi arabcha, forsch, ruscha so'zlar o'rnida noto'g'ri tanlangan turkiy so'zlar qo'llanilayotgan edi. Chunonchi 20-yillarda *inqilob* o'rnida turkiy *o'zgarish* so'zi ishlatilgan. Elbek bu so'zning shu ma'noda qo'llanilishiga qarshi chiqadi. Sababi o'zgarish *tag'yir* so'zining tarjimasini bo'lib, inqilob ma'nosini bermaydi. Olim inqilob o'rnida to'ntarish so'zini qabul qilish yaxshiroq degan xulosaga keldi. Hozirgi kunga kelib matbuotimizda *inqilob* o'rnida *to'ntarish* faol qo'llanilmoqda.

3. O'lkamizda chiqayotgan turli gazeta, jurnal, risolalarda bir o'rinda bir necha turli so'z va atamalar ishlatilardi. Ana shu so'z va atamalarni tartibga tushirish, ularning tildagi qat'iy o'rnini belgilash lozim edi. Masalan, o'sha davr matbuotida *qasaba* (arabcha, kichik shahar degani) va *bo'lis* (volost, ya'ni katta qishloq ma'nosida) so'zlari bir-birlarining o'rnida aralash ishlatilgan. Elbek bunday so'zlar o'rinida azaldan qo'llanib kelayotgan *kent* so'zini qayta tiklashni taklif qiladi. Chunki *kent* - *qasaba*, *bo'lis* so'zlarining ma'nolarini bemalol ifodalay oladi.

O'sha vaqtda yaratilgan maktab darsliklarida mualliflar tomonidan turli xil terminlar qo'llanilgan. Masalan, arabcha zuli so'zi tomon ma'nosini anglatsa-da, Toshkentda bu o'rinda *qobirg'a* so'zi ishlatilgan. *Musallas* o'rnida Farg'ona vodiysida *uchburchak*, Toshkentda uchlik terminlari ishlatilgan. Elbek bunday har xillikni bartaraf etish maqsadida har bir tushuncha uchun qat'iy bir termin olishni yoqlab chiqadi.

4. Elbekning matbuot sahifasida lug'at va atamalar burchagini ochishda asosiy maqsadi "Chig'atoy gurungi" tomonidan qo'llanila boshlagan sof turkiy so'zlarni keng xalq ommasiga yoyish shu masalada bosh qotirayotgan ilm ahliga ularni havola etish, bu borda fikr olish, noto'g'ri qo'llanilayotgan turkiy muqobillarni bahs, munozaralar bilan ilmiy hal etish edi. Shu asosda Elbek tilimizning ishlanishiga yo'l ochib ba'zi nuqson va kamchiliklarni bartaraf etdi.

Ana shunday vaziyat jadidlar davrida yaratilgan birinchi lug'atlardan biri "Lug'at va atama"ning yuzaga kelishiga, keyinchalik "O'zbekcha shakldosh va ma'nodosh so'zlar" lug'atining yaratilishiga sabab bo'ladi.

Serqirra ijodkor Elbekning ilmiy faoliyatida lug'atchilik muhim ahamiyatga ega. O'zbek tilining lug'aviy birliklarga boy ekanligini namoyish etish, isbotlash, uni soflashtirish va eng muhimi, xalqimiz ma'naviy olamini boyitish maqsadida 1924 yilda "Lug'at va atama" nomli tarixiy izohli lug'atni yaratdi hamda uni "Inqilob" jurnalining 13-14-qo'shma sonida chop ettirdi.

Lug'atshunos Elbek mazkur lug'atiga o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga munosib ulush qo'shgan Lutfiy, Alisher Navoiy, So'fi Olloyor, Bobur, Abulg'oziy Bahodirxon kabilarning asarlari tilini manba qilib oldi va asosiy e'tiborini ulardagi umumturkiy so'zlarga qaratadi. Lug'atdagi deyarli barcha leksik birliklar o'z qatlamga oid so'zlar hisoblanadi.

Elbek har bir so'zni izchil izohlashga, uning ma'no-mazmunini to'la yoritishga uringan. U so'zning o'z (bosh) ma'nosi bilan bir qatorda ko'chma, qo'shimcha ma'nolarini ham sharhlashga harakat qilgan. Shubhasiz, ushbu tarixiy izohli lug'at o'zbek leksikografiyasi rivojida muhim o'ringa ega.

Elbekning "Lug'at va atamalar" asarini olima Shoira Bobomurodova ilmiy atamalar va kundalik turmushga oid so'zlar kabi ikki guruhga ajratib tasniflash mumkinligini aytadi :

1. Ilmiy atamalar:

a) riyoziyotga oid so'zlar: *zoviya-puchmoq*, *hisob-sayg'i*, *sath-yuz*, *murabba-to'rtpuchmoq*, *musallas-uchpumoq*, *kasr-ushoq*, *kasri aori-ushoq o'nlar*, *ufqiy-yoysiq*, *xat-chiziq*, *tomon-taraf*;

b) kimyoga oid atamalar: *mavludulalmo-suvtug'dirgich*;

d) jug'rofiyaga oid atamalar: *jazira-orol*, *ko'rfaz-qo'ltuq*, *tarnov-jurg'a*, *sharq-kunchiqish*, *g'arb-kunbotish*, *shimol-tunyoy*, *janub-kunyoy*, *neft'yermoyi*, *irq-tus*, *shalola-sharqirama*, *mag'ora-o'ngur*, *girdob-g'iqun*, *jangal-o'rmon*;

e) iqtisodga oid atamalar: *mubodila-ayribosh*, *doxud-kirim*, *ros xud-chiqim*, *nasiya-o'nitgich*, *mubilizatsiya-qilquyruq*, *avans-bo'nak*, *muoxada*, *dogovor-keliishsh*, *nolug*, *xiroj-solig*';

f) tibbiyotga oid atamalar: *dori-em*, *tabib*, *do'xtir-emchi*, *apteka-emloq*, *kasal-og'riq*, *vabo-o'lat*, *tif-terlama*, *vozvratniy tif-kezik*;

g) tilshunoslikka oid atamalar: *adad-son*, *zamir-olmosh*, *fe'l-ishlik*, *odot-qo'shimcha*, *hukm-kesim*, *alomat-belgi*, *istiloh-atama*, *modai asla-o'zak*, *asos-negiz*, *forma-bichim*, *shakl-apt*, *jumla-so'ylam*, *nuqta-turki*, *qavs-yoy*;

h) adabiyotga oid atamalar: *opera-lapar, shoir-oqin, qo'shiqchi, nasr-sochma, nazm-tizma, adabiyot-ardamlilik, adab-erdam, vazn-solmoq, mezon-o'lchak.*

2. Kundalik turmushga oid so'zlar:

a) insomning tana a'zolari va unga aloqador bo'lgan so'zlar: *tan-gavda, asab-singir, mo'ylab-burut, lab-dudog', xalqum-bo'g'uz, panja-barmog', band-bo'g'im, me'da-oshqozon, ustxon-suyak, kemik, dum - qo'yruq;*

b) insonning ruhiy-jismoniy belgilari va ma'naviy-axloqiy xususiyatlarini ifodalovchi so'zlar: *bahodir-ali, bardam -tetik, bechora-boyoqish, miskin -yo'qsul, yetim-o'ksuz, zolim-yovuz, faqir-qashshoq, tanbal -yolqov, axzloq-yolqov, sergap-ezma, devona -tentak, xasis-ziqna, baxil-qurumsaq, ko'r-so'qir, invalid-mayib, falaj-pachal;*

d) kasb-hunar egalari va shaxsni ifodalovchi so'zlar: *notiq-chechan, sehragar-ko'zboqchi, sayyoh-kezuvchi, muhojif-soqchi, qassob-etchi, oshpaz-bakavul, dehqon-ekinchi, josus-tilchi, voqeanavis-ayg'oqchi, tarjimon-tilmoch, mutaxassis-pechak, muhojir-ko'chkunchi, munkir-tonguchi, xizmatkor-qorol, mehnatkash-ishchi, rejissur-sinovchi;*

e) mavhum tushunchalarni ifodalovchi so'zlar: *his-sezgi, payqov, ishq-sevgi, g'azab-achchiq, gina-o'pka, shuhrat-dong, takdir- yozmish, munoajat-yoqorish, holat, razm-jontalash, ehtiyoj-zoriqish;*

f) ijtimoiy-siyosiy hayotga oid so'zlar: *ittifoq-birikma, ittiqod-birlik, tashkilot-uyushma, inqilob-to'ntarish, tag'yyr-o'zgarish, mustaqil-o'zboshli, hurriyat-erkinlik, ko'mmunisticheski-o'rtanchal, qonun, nizom-yasoq, tuzuk, qaror-to'xtam, farmoni oliy-yorliq, sobit-turg'un, qatliom-qirg'in, visilka-surgun, pog'rum-ur-yiqit, ixtilol-qo'zg'alon, sulh-yarash, muohaza, dogovor-kelishish;*

g) joy nomlarini ifodalovchi so'zlar: *poytaxt-xonboliq, shahar-boliq, qasaba-kent, uezd-tuman, markaz-kindak, xoli-ovloq, mo'zor-tuga, qabr-sag'ana, do'zax-tamug', jannat-ujmoh, zindon-turma, vatan-yurt, mamlakat-o'lka, istehkom-qo'rg'on;*

h) uy-ro'zg'or buyumlari va unga aloqador so'zlar: *parda, zanaveska-chimildiq, darboza-qopqa, kalit-ochgich, namat-kigiz, obdasta-qumg'on, tasha-cho't, nordbon-shotu, sutun -tirak, mix-chega, jihat-seb, devor-tom, meshk-tulum, fanjon-bodroq;*

i) oziq-ovqat va kiyim-kechak nomlari: *non-ekmak, meva-yemish, go'sht-et, sharob-chog'ir, sabza-ko'kat, g'alla-oshliq, rizq-oziq, barima-uviz, tuxum-yumurqa, joma-to'n, kuloh-bo'rk, ro'mol, chorsu-qiyiq, dastro'mol-yog'liq, materyol -jomilg'a;*

Elbek arab, fors, rus so'zlariga o'zbekcha muqobil topishda 1922-yili o'tkazilgan maorif madaniyat xodimlarining 2-quriltiyida ishlab chiqilgan atama qabul qilishning to'rt tamoyiliga asoslanadi:

1. Lug'at va atamalar yaratishda asosiy manba jonli til bo'lishini lozim deb biladi. Shuning uchun turkiy muqobillarni turli qishloq shevalari hamda xalq og'zaki ijodi namunalaridan izlab topishga harakat qiladi. Masalan, lug'atda keltirilgan *kezik (navbat), chug'ul (ig'vogar), chulg'ov (poytaba), em (dori), emchi (do'xtir, tabib), dov (da'vo) singir (asab), chega (mix), ujuz (arzon), bo'tan (begona)* so'zlari hozirga qadar o'zbek xalq shevalarida qo'llanilib kelayotir.

2. O'zlashgan so'zlarga muqobil topishda sun'iylikka berilmaslik maqsadida arxaik so'zlardan foydalanishga, ularga yangi ma'no va tushunchalarni yuklab qaytadan muomalaga kiritishga intildi. Elbek *ko'galdosh (hamshira), boliq (shahar), o'ron (porul), belkat (posilka), bolbol (haykal)* kabi eskidan ishlatilib, "yolg'iz bu kungi shahar xalqining miyasiga sig'may qolgan so'zlarni yana o'z o'rnida ishlatilsa qancha qiyinchiliklardan qutul'g'onimiz kabi adabiyotimizni ham soddalashtirgan bo'lamiz", deya mumtoz asarlar tilini o'rganishga, undan samarali foydalanishga undaydi. Bu an'ana 20-30-yillarda anchagina keng tus olgandi. Masalan: "Boburnoma"da uchrovchi *o'ron* so'zi (Said Ahroriy lug'atida nomi *shab* deb berilgan) Fitrat asarlarida porol (пороль) ma'nosida qo'llanilgan:

"Badrinat. O'ron berdimi?

Qorovul. Berdi. Chilon og'ochining ostig'a kelgach, biroz turdi. O'ng qo'lini ikki yo'la ko'tardi.

Rahmbaxsh. Siz-da chiqib, o'ron beringiz, kelsun" [19]

Fitrat va Elbek qadimgi turkiy o'ron so'zini porol' o'rnida qo'llashni taklif qilgan

bo'lsalar-da, G'ozim Olim uni *shior* ma'nosida ishlatadi:

"O'rtag'a shu o'ronlarni (shu'orlarni) otdi:

Hokimiyat shuvrolarg'a.

Yer dehqonlarga, non, don ochlarga.

Biroq, tilshunolarimiz tarafidan taklif etilgan bunday arxaik so'zlar, adabiy tilimizga singib ketmadi.

3. Lug'atshunos o'zbek tilining milliyiligini saqlash, uni yot so'zlar ta'siridan himoya etish, erkin rivojlanishini ta'minlash maqsadida yot tillardan olingan tayyor atamalarni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilishga qarshi chiqdi. Tilimizdagi mavjud imkoniyatlarni ishga solib, yangi so'zlar yasash lozimligini uqtirdi.

Masalan, *rejissur* o'rnida *sinovchi*, *suflyor* o'rnida *ishvirchi*, *nasiya* o'rnida *o'nutgich* kabi yasama so'zlarni qo'llashni taklif qiladi.

Shunday qilib yuqoridagi fikrlardan quyidagi xulosalami chiqarish mumkin:

1.Elbekning "Lug'at va atamalar"i XX asr o'zbek lug'atshunoslik sohasida yangi bosqich bo'ldi. Unda o'zbek shevalari, mumtoz asarlar tili, ba'zi bir so'zlarning etimologiyasi bo'yicha yangi ma'lumotlar bor.

2.Bu lug'at nafaqat Elbekning, balki butun til fidoyilarining 20-yillarda til sofliqi uchun boshlagan harakatlari, uning milliyligini saqlash, erkin rivojini ta'minlash yo'lida bajargan ishlarini ifoda etib turadi. Chunki unda Chig'atoy gurungi a'zolari tomonidan ishlab chiqilgan va muomalaga kiritilgan so'z va ifodalar ham jamlangan. Bu lug'at Fitrat, Botu, Elchi, Elxon qatorida Elbekning ilmiy, adabiy asarlarini o'qishda qo'l keladi.

3.Elbekning lug'ati bugungi kun uchun ham g'oyat ahamiyatli bo'lib, undan 20-30-yillarda davr talabi bilan yangidan yasalgan va iste'molda bo'lgan so'z va uning ma'nolarini tadqiq etishda foydalanish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Бобожонов Ш. *Миллий лугатчилик масалалари*.– Қарши: Насаф, 2004.–32 б.
2. Бобомуродова Ш. *Ўзбек тилишунослиги ривожиди Элбеkning роли: Филол. фанлари номзоди дисс. автореф.* – Т., 2001.– 32 б.
3. Саидов Ё. *Фитрат бадиий асарлари лексикаси: Филол. фанлари номзоди дисс. автореф.* – Т.: ТАИ, 2001.– 28 б.

2030 UZBEKISTAN RESEARCH ONLINE
uzjournals.edu.uz



Google
scholar



**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:

Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
[https://buxdu.uz/32-buxoro-
davlat-universiteti-ilmiy-
axboroti/131/131-buxoro-davlat-
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
05.06.2024 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.
Published in the printing house
"BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara,
K.Murtazayev street, 344